Annotatsiya: Maqolada global ekologik muammolar kuchaygan davrda yashil iqtisodiyotni qo'llash orqali barqaror o'sishga erish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan va ularning tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq qilingan. O'zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini ekologiya talabalari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologik muAmmo yashil iqtisodiyot, xorij tajribasi, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, mintaga.

Abstract: The article analyzes the experience of foreign countries in achieving sustainable development during the transition to a green economy and the use of effective methods in this direction in Uzbekistan. Scientifically based recommendations have been developed for the reorganization, reform and development of economic sectors in the regions of Uzbekistan with the aim of greening production.

Key words: ecological problem, green economy, foreign experience, environmental protection, sustainable development, region.

Аннотация: В статье анализирован опыт зарубежных стран в достижении устойчивого развития и использования эффективных методов в период перехода к зелёной экономике в условиях Узбекистана. Разработаны научно обоснованные рекомендации для реорганизации, реформирования и развития секторов экономики в регионах Узбекистана с целью экологизации производства.

Ключевые слова: экологическая проблема, зеленая экономика, зарубежный опыт, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, регион.

KIRISH

Jahon mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashishi kuchayib borishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi bilan birga atrof-muhitga jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan salbiy ta'sirlar ortib boraveradi. Hozirgi kunda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolar, ekologiya bilan bog'liq muammolarning muhim, hal qiluvchi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Agarda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish, ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun hozirda aniq va maqsadli harakatlarni amalga oshirib, ularning ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'luvchi choralarni ko'rmasa, bundan keyin kechga qoldirilgan har bir jarayon qaytarib bo'lmaz oqibatlariga olib keladi. Ya'ni qisqa qilib aytganda, hozir insoniyat ekologik muammolarni hal etishning burilish nuqtasida turibdi, ushbu nuqtadan keyin faoliyat keyinchalik o'zgartirib bo'lmaz oqibatlariga olib keladi, agar hozirdan aniq maqsadlar sari harakat qilinsa, unda ushbu yo'nalishda qandaydir ijobiy natijalarni qo'lga kiritish mumkin.

Hozirga qadar amal qilib kelgan iqtisodiy rivojlanish modellari resurstable va mehnat talab ishlab chiqarishga asoslangan bo'lganligi bois atrof-muhitga, tabiatga katta zarar yetkazib kelindi. Ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlardan ko'rilayotgan ijtimoiy samara tabiatga yetkazilgan zarar oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy zarardan pastligi bilan ajralib turgan. Mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish ekologik xavf-xatar nuqtayi nazaridan minimallashtirmagan edi.

Covid-19 pandemiyasi hozirgi zamon iqtisodiy modellari jahon iqtisodiyoti oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yecha olmasligini ko'rsatdi. Shu sababdan zamonaviy iqtisodiy muammolarni yechishda yashil iqtisodiyot modeli asosiy omil bo'lib sanaladi. Dunyoning ko'plab davlatlari buni tushinib yetgan holda iqtisodiyotini ekologiyalashtirishga o'tishmoqda. O'zbekistonda ham ekologik muammolar o'zining salbiy ta'sirlarini iqtisodiyotning turli tarmoqlari samaradorligida, aholining salomatligi ko'rsatkichlarida, hududlarning rivojlantirish darajalarida namoyon qilib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechishda, ta'sirini kamaytirishda mintaqalar



iqtisodiyotini, ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini yashil iqtisodiyot talabalarini nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish, rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo'llash bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz, dolzarb masalalaridan sanaladi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishda va energiya samaradorligini oshirishda "yashil iqtisodiyot"ning rivojlanishi yetakchi o'rin egallab bormoqda. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda "yashil iqtisodiyot"ning shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va uni amal qilishining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Iqtisodiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot, iqtisodiyotni ekologiyalashtirish masalalari uncha uzoq bo'lmagan davrdan boshlab tadqiq qilib kelinmoqda. Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarga Annon (1996, 2001), Asafu-Adaye J. (2005), Biely K. (2014) Boulding K. E. (1966), Brown L. (2001), Cai W. Wang C., Chen J. & Wang S. (2011), Cato Molly (2009), Cook S., Smith K. & Utting P. (2012), Costanza R. (1991, 1997), Friedman T. L. (2009), Georgescu-Roegen N. (1978), (1993), Goodstein E. (1999), Hamilton K. & G. Ruta (2006), Heal G. (2012), Hey C. (2005), Hobson K. (2013), Howarth R. B. (1997), Jacobs M. (1991), Jänicke M. (2011), Khor M. (2011), Martínez-Alier J. & Muradian R. (2015), Milani B. (2000), Newton A. C. & Cantarello E. (2014), Rehbinder E., Stewart R. B. & Del Duca P. L. (1985), Smulders S., Toman M. & Withagen C. (2015), Van den Bergh J. (2001, 2010) larni ko'rsatishimiz mumkin.

MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida T. A. Akimova, A. G. Bannikov, M. M. Brinchuk, V. K. Donchenko, M. F. Zamyatina, M. N. Ignateva, N. N. Lukyanchikov, A. D. Malinin, Yu. V. Novikov, Yu. P. Odum, Yu. B. Osipov, I. M. Potravniy, N. V. Paxomova, N. B. Proxorova, V. M. Razumovskiy, N. F. Reymers, T. V. Rogova, A. S. Stepanovskix, V. V. Xaskin, S. V. Yakovlev, Ya. Ya. Yandiganov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Mintaqaviy darajada G. Ye. Mekush, A. M. Adam, M. V. Tereshinalar tadqiqotlar olib borishgan. V. I. Vernadskiy, N. N. Moiseev, D. X. Medouz, N. F. Reymers, A. A. Grigorev, K. S. Losev asarlarida ekologik siyosatning zamonaviy tamoyillari masalalari ko'rilgan.

Yuqoridagi olimlarning fanning, ilmiy sohaning rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini e'tirof etgan holda ta'kidlaymizki, O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, mintaqalari iqtisodiy rivojlanishida hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ekologik muammolarni bartaraf qilishda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda yashil iqtisodiyot masalalarining ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan, uni joriy qilishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tadqiq qilinmagan.

MAZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

A. V. Vahobov va Sh. X. Hojiboqiyevning "Qayta tiklanadigan energiya iste'molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari" maqolasida tiklanadigan energiya iste'molining holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari tadqiq etilgan. "Yashil energetika"ni rivojlantirishning jahon tajribasi qiyosiy tahlil qilingan va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan ^[1].

V. A. Poxvoshev o'zining "Rossiyaning ijtimoiy taraqqiyotida "yashil iqtisodiyot" nomli maqolasida "yashil iqtisodiyot" va uning Rossiya Federatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Mualliflar yashil iqtisodiyotning shakllanishi va uning Rossiya va jahon tajribasida amalda shakllanishi an'analarini, istiqbol rivojlanishi, ekologik xizmatlar va mahsulotlar tarmog'ining jahon va Rossiya tajribasini tahlil qilishgan ^[2].

M. M. Davletova o'zining "Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi" nomli tadqiqot ishida Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy-konseptual asoslarini, shakllanishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari, xorijiy tajribani Markaziy Osiyo davlatlarida qo'llash masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan ^[3].

Y. A. Lyaskovskaya, K. M. Grigorevalarning "Yashil iqtisodiyot" modeliga o'tishning hududiy imkoniyatlari diagnostikasi" maqolasida yashil iqtisodiyot va yashil o'sishning asosiy konsepsiyasi, yashil innovatsiyalar va yashil iqtisodiyotning barqaror o'sishga ta'siri, xorijiy mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tishning tajribasi tahlil qilingan ^[4].

A. M. Rodrigues "Barqaror o'sish muammolari kontekstida yashil iqtisodiyot" nomli tadqiqot ishida iqtisodiyot va atrof-muhitning o'zaro munosabatlari hamda ularning holati, ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyot asosini tashkil etishi asoslangan, yashil iqtisodiyot genezisi va uning moliyaviy inqirozlar oqibatida tobora keskinlashayotgan ekologik muammolarni bartaraf qilishdagi ahamiyati, yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni har tomonlama chuqur tadqiq qilish natijasida iqtisodiyotni ekologiyalashtirish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlarni yaratish yo'llarini, barqaror rivojlanishda iqtisodiyotni ekologiyalashtirishning ahamiyatini tadqiq etgan ^[5].



N. N. Yashalova "Mintaqaning barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish" nomli tadqiqotida barqaror rivojlanish jarayonida ekologik omillarning o'rni, ekologik-iqtisodiy rivojlanishda barqarorlikka erishishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati, mintaqada ishlab chiqarishni ekologiyalashtirishning umumiy barqaror rivojlanishdagi o'rni tadqiq qilingan hamda mintaqaviy iqtisodiy-ekologik barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar asoslangan va tasniflangan^[6].

"Yevropa Ittifoqining Sharqiy hamkorlik mamlakatlarida iqtisodiyotni ekologiyalashtirish EaP GREEN) dasturi" axborotida Armaniston, Belarus, Gruziya, Moldova, Ozarbayjon, Ukraina davlatlarida ishlab chiqarishning samaradorligini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida oshirish, mamlakat tabiiy kapitalini boshqarishda, ma'muriy boshqaruvda, atrof-muhit muhofazasi siyosatida yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llashning natijadorligi tadqiq etilgan^[6].

V. Podgorniy, F. A. Shulenbayeva "Qozog'iston qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot"dan foydalanish" nomli nomli tadqiqotida atrof-muhit muhofazasi, qishloq xo'jalik yerlarining degradatsiyasini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan xalqaro dasturlar asosida xalqaro tajriba o'rganilgan, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida Qozog'iston qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq qilingan^[7].

J. B. Smagulova, A. Y. Muxanova, G. I. Musayevlar "Yashil iqtisodiyotga o'tishning jahon tajribasi tahlili: iqtiboslar va yo'nalishlar" nomli tadqiqot ishida jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotning o'rni, uning rivojlanish tendensiyalari, xorijiy malakatlar va mintqalardan yashil iqtisodiyotga o'tishning tajribasi, bu tajribaning yutuq va kamchiliklari borasida fikr yuritiladi^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ayniqsa, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil uslubidan, xorijiy davlatlarning tajribasi tahlilida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, mamlakat xo'jaligini yashil iqtisodiyot asosida rivojlantirish iqtisodiyotning zamonaviy modeli sifatida uncha ko'p bo'lmagan davrda paydo bo'lgan bo'lsa-da, qisqa muddat ichida jahon iqtisodiyotining amaldagi modellariga nibatan global ekologik va iqtisodiy inqirozlar davrida ustunlikka egaligini ko'rsatmoqda. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda buning natijasini ilmiy-tadqiqot ishlarida va amaliyotda ko'rishayotganligi bois, iqtisodiyot va uning turli tarmoqlarida, mamlakatning turli mintaqalarida keng ko'lamlarda joriy qilishmoqda. Energosamarali va tabiiy infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalar allaqachon o'z samarasini bera boshladi.

Yashil iqtisodiyot – iqtisodiy fanlar tizimidagi so'nggi 20-30 yil ichida paydo bo'lgan yangi yo'nalish bo'lib, uning mazmuni iqtisodiyotni tabiatning bir komponenti sifatida unga bog'liq holda mavjudligini izohlaydi. Yashil iqtisodiyot nazariyasi uchta aksiomaga asoslanadi, ya'ni cheklangan tabiiy makonda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirish imkonsizligi, resurslar cheklangan sharoitda cheksiz o'sib borayotgan istaklarni qondirish mumkin emasligi, Yer yuzasidagi barcha narsalar o'zaro bog'langanligi. Doimiy iqtisodiy o'sishga erishib borish imkonsiz, doimiy iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Ayrim iqtisodchilar hozirda ustunlikka ega iqtisodiy tizimlar har jabhaga javob bera oladigan darajada mukammal emasligini ta'kidlashmoqda. Bu tizimlar ayrim guruh mamlakatlar va ayrim qatlam aholining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, biroq uning atrof-muhit va tabiatga yetkazayotgan zarari bu foydadan ancha ustunligi ko'rinib qolmoqda. Ayniqsa, buning oqibatida yuzaga kelayotgan hududlardagi keng qamrovli kambag'allik, tabiiy kapitalning isrof qilinishi, ichimlik suvi, oziq-ovqat va energiya ning yetishmasligi, insonlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlik, yirik ekologik muammolar shular jumlasidan. Ushbu muammolarni bartaraf qilish va insoniyatni taraqqiy ettirish uchun yashil iqtisodiyotga o'tish talab etiladi. Turli mintaqalarda turli mamlakatlar yashil iqtisodiyotga har xil masshtabda va yo'nalishlarda o'ta boshlashgan. Ularning bu boradagi tajribasni o'rgangan holda, bu yo'nalishdagi ijobiy tendensiyalarni aniqlashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tishning salbiy oqibatlarini tahlil qilish, natijalarni solishtirib, mamlakatlarning tajribasining O'zbekistonga mos jihatlarni tadqiq etish ushbu tadqiqotning maqsadi sanaladi.

Yashil iqtisodiyot BMTning atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP)ning g'oyasi sifatida 2008-yilda qabul qilingan^[9].

Jahon xo'jaligini ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan o'sishning barqaror modeli sifatida yashil iqtisodiyotga qayta yo'naltirish uchun amalga oshiraldigan tarkibiy islohotlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Ekspertlar yashil iqtisodiyotni joriy qilish orqali YIM o'sishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishish bilan bog'liq islohotlarni quyidagi to'rtta yo'nalishda amalga oshirishni tavsiya qilishadi.



Birinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish tabiiy va inson kapitali iste'mol resurslarini oshirishga qodir, ya'ni tabiiy kapitalni samarali boshqarish va inson salohiyati oshishi evaziga tabiiy atrof-muhitning holati yaxshilaniishi, buning oqibatida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Ikkinchidan, bu o'zgarishlar ijobiy tarkibiy o'zgarishlar bilan bir qatorda tarkibiy, bazaviy tarmoqlarda, jumladan, energetika, qurilish, qishloq xo'jaligi, maishiy soha va boshqalarda katta miqdordagi investitsiyani talab qiladi, oqibatida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida samaradorlikning ortishiga olib keladi.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida mustaqil ravishda investitsiyalar ajratiladi, asosan, suv ta'minoti tizimi, kanalizasiya tarmoqlari, jamoat transporti kabi muqobil energiya talab qiluvchi tarmoqlarga yo'naltiriladi.

To'rtinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, buning oqibatida raqobat muhiti kuchayadi, innovatsion samara ortadi [10].

Yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida joriy qilgan ayrim davlatlar tajribasini tahlil qilamiz.

Yashil iqtisodiyotni joriy qilib, undan samarali foydalanayotgan, bu sohada yetakchilar davlatlardan biri Janubiy Koreya sanaladi. Ushbu mamlakatda 2011-yildan boshlab har yili YIMning 3 foizi, ya'ni 60 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag' yashil sektorni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'tgan davr mobaynida ushbu sektorda 1,8 mln yangi ish o'ri yaratilgan. Yashil iqtisodiyotni milliy strategiya sifatida qabul qilgan Janubiy Koreya asosiy e'tiborni sanoatga, energetikaga, investitsiyaga, transportning yashil turlariga, ichimlik suvining muqobil manbaalariga, chiqindilarni qayta ishlashga, istirohat bog'larini rivojlantirishga, shaharlardagi daryolarning tozaligiga qaratmoqda. Vazirliklar amalga oshirayotgan turli dasturlar budjet xarajatlarini ortiqcha sarflamaslik maqsadida yagona paketga birlashtirilgan. 2011-yildan boshlab Janubiy Koreyada "yashil" tovarlar va xizmatlar iste'molini rag'batlantirish maqsadida "yashil" to'lov kartalari joriy qilingan.

AQShda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida muqobil energetikani samarali tashkil etishdan boshlangan. Mazkur maqsadda davlat dasturi qabul qilingan bo'lib, 2030-yilda mamlakat bo'ylab ishlab chiqarilayotgan energiyaning 65 foizi quyosh panellari yordamida yaratishga erishish rejalashtirilgan. 2014-yildan boshlab har bir shtatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z hududiy dasturlari qabul qilingan. 2016-yildan keyingi 10 yil uchun ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish hamda ekologik vaziyatni yaxshilashga mo'ljallangan dastur asosida investitsiyalar ajratilmoqda. Mazkur dastur asosida 10 mln yangi ish o'ri yaratish rejalashtirilgan.

Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga mo'ljallangan dasurlar qabul qilingan. Energetika, jamoat transporti va infratuzilma, qurilish, chiqindilarni utilitatsiya qilish yo'nalishlarida dastabki yo'nalishlar sifatida tanlangan va hozirga qadar ancha hajmdagi ishlar amalga oshirilgan.

2019-yil dekabrda Yevropa Ittifoqida "Yevropa yashil yo'li" dasturi qabul qilindi. Unga asosan 2050-yilga mintaqada uglerod neytralligiga erishish, 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini 1990-yildagiga nisbatan 55 foizga kamaytirish, ekologik toza texnologiyalarni investitsiyalash, jamoat transportining nisbatan toza va arzon turlarini qo'llash, innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish maqsadida sanoatni qo'llab-quvvatlash, energetika sektorini dekorbanizatsiyalash, binolarning energiya samaradorligini oshirish kabi tadbirlar amalga oshirish belgilangan.

Yevropada avtomobildan chiqayotgan zararli gazlar bo'yicha Yevro-6 standarti qabul qilingan bo'lib, 2025-yildan Yevropa avtomobil sanoatida Yevro-7 standartini joriy qilish rejalashtirilgan. Yevro-7 standartiga asosan ichki yonuv dvigateliga ega avtomobillarni ishlab chiqarishga taqiq qo'yiladi.

Yashil iqtisodiyotni joriy qilish va uni iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samarali rivojlantirish sohasida Xitoy ancha natijalarga erishgan. Iqtisodiyot tarmoqlarining tez sur'atlarda o'sishi, aholining zichligi yuqoriligi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, qator ekologik muammolarning yuzaga kelganligi Xitoy iqtisodiyotini yashil iqtisodiyotga o'tishini talab qiladi. Xitoyning yashil iqtisodiyotga o'tishda dastlabki urg'uni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish, mamlakat energiya balansida muqobil energiyaning ulushini oshirish, aholini toza ichimlik suvi va toza atmosfera havosi hamda xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ekologik madaniyatni shakllantirish yo'nalishlarida olib borishga yo'naltirdi. 2020-yilda 15 foiz elektr energiya qayta tiklanuvi manballardan olingan. 2011-2015-yillarda 2 mingdan ortiq ekologik zararli korxonalar majburiy ravishda tugatildi.

Xitoy energiyatejamkor va qayta tiklanuvchi energetikaga AQSh va Yel davlatlariga nisbatan bir necha barobar ortiq miqdordagi davlat investitsiyalarini joriy qilib kelmoqda. Buning oqibatida Xitoy kompaniyalari 2020-yil holatida jahonda ishlab chiqarilayotgan quyosh batareyalarining 50 foizga yaqinini va shamol dvigatellarining 25 foizini eksport qilmoqda. Hozirgi davrda nanotexnologiyalarga katta e'tibor qaratilgan. 2022-yil boshda mamlakatda elektromobillar ishlab chiqarish 45 foizga o'sdi va hozirda Xitoy elektromobillar ishlab chiqarishda jahon yetakchisiga aylanib ulgurdi, jahon bozorining 60 foizidan ortiq elektromobillari ushbu mamlakatda ishlab chiqariladi. Xitoy 2035-yilgacha avtomobil parkini 100 foizga yashillashtirishni rejalashtirgan.

O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunga hududning tabiiy-ekologik sharoiti va resurslari, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlari, mavjud moliyaviy-iqtisodiy resurslarni



ko'rsatish mumkin. Tabiiy-iqlimiy sharoit respublikada muqobil energiya manbalarining ulkan zaxirasi mavjudligini ko'rsatadi. Quyosh energiyasining yuqoriligi, sanoat rivojlangan va aholi manzilgohlari atrofida keng maydonlarning mavjudligi quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, tog' oldi hududlari va voha hamda cho'l hududlaridagi bufer zonalarida doimiy shamollarning mavjudligi shamol energiyasi imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi ^[11].

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha dastlabki jarayonlar boshlangan, bu borada huquqiy asoslar shakllantirilib borilmoqda, qator farmon va qarorlar rasmiylashtirilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlash" to'g'risidagi, 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidan. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asosan 2030-yilgacha quyidagi strategik maqsadlarga erishish mo'ljallangan ^[12].

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish;
- 2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga ta'sirni cheklash bo'yicha qo'yilayotgan talablar asosida "yashil sertifikatlar" tizimi joriy etish;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish;
- uglerod birliklarining reyestrini shakllantirish va yuritish;
- iqtisodiyot tarmoqlari kesimida issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirishning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini qisqartirish bo'yicha faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi iqlim o'zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) yo'lga qo'yish;
- tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish doirasida tarmoqlar va hududlarning iqlim o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi xususiyatlaridan kelib chiqib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish hamda unga moslashish chora-tadbirlari va investitsiya loyihalari qamrab olish;
- 2023-yil 1-iyulga qadar "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini to'liq joriy etish;
- "yashil" iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida "yashil" texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;
- istiqbolli innovatsion ishlanmalar va "startap" loyihalarni amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar mo'ljallangan.

Muallif O'zbekiston sharoitida hozirda, dastlabki davrda yashil iqtisodiyotni joriy qilish va rivojlantirishi yo'nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya qiladi:

- Chiqindilarni utilitatsiya qilish sohasida. Ushbu sektorda tezkorlik bilan yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish talab etiladi. Bu o'z navbatida atrof-muhitning ifloslanishi muammolarini kamaytirishi bilan birga, insonlar salomatligi bilan bog'liq muammolarning ham kamayishiga olib keladi;
- Tabiiy resurslardan (yer, suv, biologik, atmosfera) foydalanish sohasida. Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish talab etiladi. Bunda oziq-ovqat va suv xavfsizligi, ekologik sof mahsulot ishlab chiqarish masalalari ham qisman yechim topadi;
- Energetika sohasida. Mamlakatda 2022–2023-yilgi qish mavsumida kuzatilgan energetika inqirozi kabi muammolarning yechimi sifatida mamlakat mintaqalarida muqobil energiya manbalarini oshirish, mavjud energiya quvvatlarini modernizatsiyalash zarur;



- Qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish sohasida. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, gidrotexnik inshootlar foydali ish koeffitsiyentini oshirish sohada katta hajmda resurstejamkorligiga olib keladi;
- Jamoat va shaxsiy transport sohasida. Transport tizimini yashillashtirish atmosfera havosi masalalariga yechim bo'lishi bilan birga energiya iste'moli tejamkorligini shakllantiradi;
- Yashil texnologiyalar va yashil ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishni kuchaytirish, bunday texnologiyalarni joriy qilganlik uchun rag'batlantirish tizimni joriy qilish zarur;
- Ekologik madaniyatni kuchaytirish sohasida. Jamiyatning turli qatlami ishtirokchilarida tabiatga munosabat, atrof-muhit muhofazasi masalalarida madaniyatni oshirib borish, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalar va ekologik madaniyatning samarasi to'g'risida targ'ibotlarni kuchaytirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyot hududiy va makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga aholi farovonligini oshishiga, tabiiy muhit va aholi salomatligining yaxshilanishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'ladiki, yashil iqtisodiyotni dastlabki rivojlantirish jarayonida ustuvor tarmoqlarga e'tibor qaratish va ularning imkoniyatlarini kengaytirgan holda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham yashillashtirib borish samarali sanaladi.

O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish va uni samarali rivojlantirish uchun yetarli tabiiy-iqlimiy, ekologik, moliyaviy-iqtisodiy, texnologik imkoniyatlarga ega. Bu borada yetakchi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. A. V. Vahobov Sh. X. Hojiboqiyev. Qayta tiklanadigan energiya iste'molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari. Academic Journal of Digital Economics and Stability (ISSN 2697-2212) <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/135>.
2. В. А. Похощев, А. В. Лукина. "Зеленая экономика" в социальном развитии России. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razviti-rossii>.
3. М. М. Давлетова. Формирование и развитие "зеленой" экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. <https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlatovaMM.pdf>.
4. Ляковская Е. А., Григорьева К. М.. Диагностика региональных возможностей перехода на модель "зеленой экономики". <https://cyberleninka.ru/article/n/diagnostika-regionalnyh-vozmozhnostey-perehoda-na-model-zelenoy-ekonomiki>.
5. Аврора Матеос Родригес "Зеленая экономика в контексте проблем устойчивого развития". Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. <https://www.disserscat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>.
6. Яшалова Н. Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. <https://www.prlib.ru/item/684795>.
7. EaP GREEN dasturi". <https://unece.org/eap-green>.
8. Подгорный В., Шуленбаева Ф. А. Использование "зеленой экономики" для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08 /ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-us-tojchivogo.pdf>.
9. Смагулова Ж. Б., Муханова А. Е., Мусаева Г. И. Анализ мирового опыта перехода к зеленой экономике: предпосылки и направления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2015. – № 1-1. – С. 92-96; URL: <https://applied-research.ru/ru/article/view?id=6344> (мурожаат вақти: 12.04.2023 й.).
10. D. Sh. Yavmutov, K. S. Karimova. O'zbekiston iqtisodiyotida "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy qilish masalalari. Международный научно-образовательный электронный журнал "Образование и наука в XXI веке". Выпуск №26 (том 7) (май, 2022). – С. 494-502. <https://www.mpcareer.ru/oinv21veke3>.
11. D. Sh. Yavmutov, S. Burxonov. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish: istiqbol yo'nalishlar va ustuvor vazifalar. Международный научно-образовательный электронный журнал "Образование науки и инновационные идеи в мире". №10, Часть-2, декабрь, 2022. –Б. 159-168.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. https://uza.uz/uz/posts/2030-yilgacha-ozbekiston-respublikasining-yashil-iqtisodiyotga-otishiga-qaratilgan-islohotlar-samaradorligini-oshirish-boyicha-chora-tadbirlartog'risida_431596.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.